

O‘ZBEK MUSIQA TERMINLARINING ANTROPOSENTRIK TADQIQI

Eshbo‘tayeva Shohsida Toshnazarovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

stajor tadqiqotchisi.

shohsidaeshbotayeva92@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili tarkibidagi musiqa terminlari antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan lingvomadaniy va sotsiol jihatdan tahlil etilgan. Inson omilining til takomiliga ta’siri, til va madaniyat mushtarakligi, jamiyatdagi sotsial guruhlar nutqida til elementlarining voqealanishi kabi masalalar tadqiqot obyekti sifatida olingan.

kalit so‘zlar: musiqa terminlari, antroposentrik paradigma, lingvokulturologiya, madaniy mazmun, lingvokulturema, sotsiolingvistika, argo

Абстрактный: В данной статье музыкальные термины узбекского языка анализируются с позиций антропоцентрической парадигмы с лингвокультурной и социальной точки зрения. В качестве объектов исследования были взяты такие вопросы как влияние человеческого фактора на развитие языка общность языка и культуры возникновение языковых элементов в речи социальных групп общества.

ключевые слова: музыкальные термины, антропоцентрическая парадигма, лингвокультурология, культурный контент, лингвокультурема, социолингвистика, сленг

AN ANTHROPOCENTRIC STUDY OF UZBEK MUSICAL TERMS

Annotation: In this article, the musical terms of the Uzbek language are analyzed from the perspective of the anthropocentric paradigm from the linguistic, cultural and

social point of view. Issues such as the human factor on language development, the commonality of language and culture, and the occurrence of language elements in the speech of social groups in society are taken as the object of research.

Key words: musical terms, anthropocentrik paradigm, linguoculturology, cultural content, lingvokulturema, sociolinguistics, slon

KIRISH. Bugun til uning foydalanuvchisi bilan birgalikda tahlil etilmoqda. Natijada har bir til o'sha tildan foydalanuvchilarning umumiy xarakteri, mental xususiyatlari, yashash hududi, turmush-tarzi, urf-odatlar va madaniyatidan kelib chiqib shakllanishi va rivojlanishi ilmiy asoslanmoqda. Xalqning madaniy taraqqiyot darajasi, etnomadaniy etika tamoyillari, ijtimoiy munosabatlar, xalqlararo muloqot bularning barchasi tilda o'z aksini topishini atroflicha tadqiq etish antroposentrik paradigma nuqatayi nazaridan "lingvomadaniyatshunoslik" va "Sotsiolingvistika" sohalarining o'rganish obyektiga aylanmoqda.

Jahon tilshunosligida etnik madaniyat shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini ifodalovchi til birliklarining etnolingvistik xususiyatlarini aniqlash, til va madaniyatning o'zaro aloqasi, ularning o'zaro ta'siri bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: Til va madaniyat munosabati, til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar tadqiqiga oid ishlar xorij olimlaridan E.V.Babaeva, A.Vejbitskaya, L.E.Vilms, V.Maslova, N.V.Barishev, Z.UAbdullayeva, N.F.Alefirenko, I.A.Murzinova, Z.K.Sabitova, O.Bicher, I.A.Murzinova va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib o'tilgan.

O'zbek tilshunosligida ham bugungi kunga kelib til va madaniyat munosabati, til tizimidagi milliy o'ziga xos elementlar tadqiqiga oid ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarning ilk namunalariga Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, Sh.Usmonova tadqiqotlarini keltirib o'tish mumkin.

Tillar o'rtasidagi o'zaro integratsiya natijasida bir tilga oid element boshqa bir tilga ko'chib o'tib o'zlashadi. O'zlashish jarayoni tilning terminologik sathida ko'proq uchraydi. Bir tildan ikkinchi tilga o'zlashgan termin dastlab adabiy til sathiga

joylashib, keyinchalik o‘ziga yangi hosila ma’nolarni yuklab so‘zlashuv tiliga kirib boradi. Ushbu termin nafaqat til tarkibining boyishiga ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan birga o‘zi bilan yangi madaniy tushuncha olib kiradi va yangi lingvomadaniy birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Dunyo tilshunosligida termin va uning xususiyatlariga oid ilk lingvistik izlanishlar O.V.Dovbish, O.V.Baran, T.V.Shetle, B.N.Raximberdiyev, O.A.Pokrovskaya, Yumatova, N.V.Moryaxina, I.V.Skvortsova, E.N.Lotka kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Natijalar: XX asrning 60-yillaridan o‘zbek tili terminologik tizimini tadqiq etish ommalashdi. Sohaviy terminologiyaning rivojlanib borishi ushbu tizimni tadqiq etish, tartibga solish masalalarini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ham tilshunoslikda dolzarb masalalardan sanalgan terminologik tizimni tartibga solish, semantik xususiyatlarini aniqlash, termin o‘zlashtirishdagi muammolar kabi masalalar talaygina. Tilshunos L.V.Ivina termin haqida: “Termin – ilm-fanning inson faoliyati doirasi va bilish nazariyasi maxsus tarmoqlarining asosiy leksik birligi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida obyekt va jarayonlarni nomlash va olamni anglash quroli sifatida xizmat qiladi”¹, deya fikr bildiradi. Tadqiqotchining fikrlariga qo‘shilgan holda termin bir tilning ikkinchi bir tilga bilish va anglash jarayonining o‘zlashishini ham anglatadi deyish mumkin. Mana shunday terminlar sirasiga madaniyat va san’at sohasiga oid musiqa terminlarini ham misol qilib keltirish mumkin. O‘zbek tilidagi ushbu terminlarning katta qismini o‘zlashma terminlar tashkil qilishi hamda ular o‘zida boshqa madaniy birlik ekanligini ko‘proq saqlab qolganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Masalan,

Muhokama: Surnay – ikki asosdan “sarra” (xursand qilmoq) arab fe’lidan yasalgan masdar “sur” (xursandchilik) yoki “surur, ikkinchisi forscha “nay” so‘zi, ya’ni surnay atamasining ma’nosi “xursandchilik nayi”². Ushbu termin turkiy xalqlarda “suruna”, “sirnay”, “zurna” shakllarida uchraydi. O‘zbek tiliga ushbu termin kompozitsion butunlik tarzida qabul qilingan. Arab va fors tiliga oid birliklardan hosil

¹ Ivina L.V. Номинативно когнитивное исследование англоязычной терминосистемы венчурного финансирования: дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2001, – С. 13.

² Aripov Z. Arab musiqa terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O‘rta Osiyo olimlarning musiqashunoslikka oid asarlari asosida) DSc – T.,2019. – B 10.

bo'lgan leksema o'zbek xalqi madaniyatiga ushbu xalqlar madaniyatining katta ta'siri bo'lganligini ham anglatadi.

Bugun bu termin lingvokuturma tarzida til tarkibimizga singib ketgan. Ushbu terminning semantik qatori ikki ma'no: lisoniy ma'no va madaniy mazmunga ega.

Lisoniy ma'nosi: "Forcha: To'yda chalinadigan nay. Sur – to'y, ziyofat + nay – sibizg'a. Teshiklari barmoq bilan ochib-yopib, puflab chalinadigan musiqa asbobi."³

Madaniy mazmuni: "Quronda aytilishicha, qiyomat kuni Isrofil farishta tomonidan chalinadigan shox (muguz)dan ishlangan"⁴ cholg'u. O'zbek tilida ushbu terminning madaniy mazmunida "to'y-tomosha, xursandchilik" semasi yetakchilik qiladi.

Ushbu termin asosida o'zbek tili tarkibida "Surnayini tortmoq – yig'i-sig'i qilmoq"⁵, "So'k oshi surnay – amaldagi ish dovruq qilinganiga arzimastligini bildirib aytiladigan frezologizmlar shakllangan. Masalan: "Kuzda odamlar qarab: "Maqtanma, g'oz, hunaring oz!" – demasinlar yana. Otalarimiz gazetalarga tushdi-ya!" – dedi jiddiy xavfsirab Tansiq. "To'g'ri, ovozamiz baland ketdi, yana "So'k oshiga surnay" deganday bo'lmasin!"⁶

"Surnay" termini, shuningdek, o'zbek madaniyatining bir qismi sanalgan "to'y" leksemasining mazmunini "karnay-surnay" birikmasi orqali umumiy mazmunda qamrab olishi bilan ham ahamiyatli sanaladi.

Bilamizki, o'zbek to'ylari "karnay-surnay"siz o'tmaydi. To'ylarni ochib berishda xizmat qiladigan "karnay-surnay" guruhleri a'zolarining ham o'zaro muloqot tili mavjudligi tilshunoslikning "Sotsiolingvistika" sohasi uchun ahamiyatlidir.

Argo – (frans. Argot – jargon) – ma'lum toifa kishilarigagina tushunarli so'zlar mavjudligi bilan umumxalq tilidan farq qiluvchi, biror ijtimoiy toifa, guruhga xos yasama til.⁷

³ O'zbek tilining izohli lug'at. O'zME III jild, T., 2007. – B. 595.

⁴ O'sha asar. – B. 591.

⁵ O'sha asar. – B. 595.

⁶ Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -T. 1992. – B. 244.

⁷ O'zME. Birinchi jild. T. 2000.

Mana shunday argolarga san'at sohasida quyidagilar misol bo'la oladi:

Yakan – bu so'z adabiy tilda “tola-tola bo'lib o'sadigan to'qay o'simligi”⁸ ma'nosini ifodalovchi botanikaga oid termin bo'lsa, san'atkorlar orasida “pul” ma'nosini ifodalovchi argo sanaladi. Shuningdek, “Parrandaning dum va qanotlarini tashkil qilgan, muguzsimon uzun naychaning ikki yonida ikki qator bo'lib o'sib chiqadigan parlardan iborat a'zosi” ma'nosini beruvchi “pat” leksemasi ham san'atkorlar orasida “pul” ma'nosini ifodalaydi. “To'yda chalinadigan nay, puflama-tilchali musiqa cholg'u asbobi”⁹ ma'nosini anglatuvchi “sunray” leksemasi karnay-surnaychilar orasida “xashpak” deb ham nomlanadi. “Xashpakchi” so'zi esa “surnaychi” kasb oti ma'nosini beradi. Ayni shu leksema asosiga fors-tojik tilida “katta, ulug'” ma'nolarini beruvchi “kalon” asosi qo'shilib “kalonxashpak” so'zi hosil qilinadi va bu so'z “karnay” ma'nosini anglatadi. Ushbu cholg'uni chaladigan kishi “kalonxashpakchi” deb nomlanadi. Shu bilan birga, “childirma, chirmanda – yumaloq shakldagi o'zbek va tojik urma musiqa cholg'usi” ma'nosini beruvchi “doyira” termini o'rnida “mojar” leksemasi ham qo'llaniladi.

Shuningdek, “to'y egasi” ma'nosini beruvchi “otarkash”, “cholg'u asbobini chalish” ma'nosini beruvchi “shila”, o'rni bilan “tushunarlimi”, “tushundingmi”, ba'zan “so'rayapti”, ba'zan esa “olib kelayapti” ma'nolarida keluvchi “andog'lamoq” leksemalari birikib, faqat shu jamiyat vakillari uchun tushunarli bo'lgan gap tuziladi. Masalan, “Otarkash shilani andog'layapti” gapi: “To'y egasi chalishni so'rayapti” ma'nosini ifodalaydi. Agar to'y egalaridan oralarida bo'lsa “shiyla noyi” ya'ni “chalish mumkin emas, yoki hozir chalmaymiz” ma'nolarini ifodalovchi gap bilan javob qaytariladi. “Diyig'o” so'zi “kuyov” ma'nosini anglatib: “Diyig'odan patni andog'la- kuyovdan pulni so'ra” gapiga “Yakan noyiykan – pul yo'q ekan” ma'nosini bildiruvchi jumlar bilan javob qaytariladi. Shuningdek, “Shambil” san'atkorlar orasida “ovqat” ma'nosini anglatib, “Shambil noyimi-ovqat yo'qmi?” jumlasini ifodalaydi. “Shambil andog'layapti” – ovqatni olib kelishayapti” ma'nosini ifodalaydi.

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: 2006-2008. I jild, - B. 101.

⁹ I.Akbarov. Musiqa lug'ati. T.: 1997. -B. 89.

“Aroq” esa “mayob” leksemasi orqali ifodalanadi. To‘y tugaganida esa “uday” leksemasi qo‘llanilib, “bo‘ldi ketdik” ma’nosini anglatadi.

Inson va til munosabatini tadqiq etuvchi antroposentrik nazariya bo‘yicha izlanishlar olib borgan L.N.Churilina muayyan tilning shakllanishi antropologik omillar ta’sirida vujudga kelishini ta’kidlaydi.¹⁰

Mana shunday omillar sirasiga sotsiol chegaralangan so‘zlar ham kiradi. Bunday so‘zlar tarkibiga kiruvchi musiqa terminlari ham ma’lum bir ijtimoiy guruh doirasida o‘ziga xos ma’nolarni ifodalaydi va tilning o‘ziga xos qirralarini ochib beruvchi vositalardan sanaladi.

O‘zbek tili tarkibida san’at va madaniyat sohasiga oid shunday terminlar borki, ular ota-bobolarimiz pand-nasihatlarini ifodalovchi maqollar tarkibiga ham singib, yangi bir semantik ma’no berish uchun xizmat qiladi. Masalan, “Baxshi bor joyda yaxshi bor”, “Dutorsiz baxshi bo‘lmas, Yomonsiz – yaxshi”, “Yomon erkak to‘y buzar, Yomon xotin uy buzar”, “Yomondan to‘n kiysang, To‘yda “To‘nim ber!” deydi”, “El qo‘shiq bilan tirik”.¹¹ Ushbu maqollar tarkibidagi musiqa terminlari o‘zbek xalqining madaniy xususiyatlarini mazmunan umumlashtirgani bilan ham ahamiyatlidir. Masalan, “El qo‘shiq bilan tirik” maqoli tarkibidagi qo‘shiq termini orqali xalqimizning ezgulikni, xursandchilikni, yaxshi kunlarni qanchalik yaxshi ko‘rishini anglash mumkin. Musiqa terminlari orqali madaniy qadriyatlar aks etgan bunday tahlillarni ko‘plab keltirish mumkin.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, terminologik tizimni tadqiq etish jarayonida inson omilini inobatga olgan holda tadqiq etilsa, til egasining etno-madaniy, areal, sotsial, mental va boshqa xususiyatlarini aniqlashga erishish mumkin. Mana shunday jihatlarni o‘zida jamlagan musiqa terminlari ham qaysi tilga oidligi va bugun qaysi til tarkibida qanday ma’noda iste’molda ekanligi bilan ahamiyatlidir.

¹⁰ Чурилина Л.Н. Антропоцентризм художественного текста как принцип организации его лексической структуры: дисс... док. Филол. Наук. – Санкт-Петербург, 2002.

¹¹ O‘zbek xalq maqollari. T.: 2014. – B.152.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aripov Z. Arab musiqa terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti (X-XV asrlar O'rta Osiyo olimlarning musiqashunoslikka oid asarlari asosida) DSc – T.,2019.
2. Akbarov I. Musiqa lug'ati. T.: 1997.
3. Ivina L.V. Номинативно когнитивное исследование англоязычной терминосистемы венчурного финансирования: дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2001.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: O'zME I jild, 2006-2008.
5. O'zbek tilining izohli lug'at. O'zME III jild, T., 2007.
6. O'zbek xalq maqollari. T.: 2014.
7. Чурилина Л.Н. Антропоцентризм художественного текста как принцип организации его лексической структуры: дисс... док. Филол. Наук. – Санкт-Петербург, 2002.